



Nazarmat Egamnazarov



Nazarmat Egamnazarov – shoir, jurnalist, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi. “Yoshlik zavqi”, “Vatan ishqisi”, “Yashil dalalar”, “Sir bo‘yi – nur bo‘yi”, “Tog‘dagi gulxanlar”, “Nay sadosi”, “Shahrimiz bolalari”, “Bahor qo‘shig‘i”, “Mangu olov” kabi she’riy to‘plamlar muallifi.

Ko'plab she'rlari qo'shiq bo'lgan. "Yurakdagi o'q" dostoni va "Sayyod jasorati" qissasi Ikkinchi jahon urushi mavzusida yozilgan.



“Vatan” arab tilidan olingan so‘z bo‘lib, “tug‘ilgan makon” degan ma’noni anglatadi. Bizning Vatanimiz mustaqil O‘zbekistondir.

“Mustaqillik” so‘zi ham arab tilidan olingan. U “erkin, ozod, qaram bo‘lmagan” kabi ma’nolarni bildiradi. Inson yoki biror davlatning boshqalarga qaram emas, erkin bo‘lishi, o‘z yo‘lini o‘zi tanlashi mustaqillikdir.





Buyuk mehring

Nazarmat Egamnazarov

O'zbegim, o'zligim, hayotim, borim,
Munavvar olamda suyuk ko'rking bor,
Turkiy el so'zligim, ona diyorum,
Dillarda yangragan buyuk mehring bor.

Temurbek qadami senda ko'rinxur,
Muazzam azmingni sezmay bo'lurmi?
Navoiy g'azali dilrabo erur,
Onalik mehringni sevmay bo'lurmi?

Osiyo bag'rida tabarruk joying,
Olisdir tarixing, kechgan yo'ling ham.
Dunyoga havasli gulshan chiroying,
Xotirda to'siqqli kechmishlaring ham.

O'zbegim, o'zligim, hayotim, borim,
Munavvar olamda suyuk ko'rking bor,
Turkiy el so'zligim, ona diyorum,
Dillarda yangragan buyuk mehring bor.

Sen bizga istiqlol, joni jahonsan,
Erking-chun qanchalar qon to'kmaganmiz.
Bag'ri keng, o'z so'zli O'zbekistonsan,
O'zgalar oldida bosh egmaganmiz.

Sen dilda qo'shiqsan, elga nur madhing,
O'zbegim, o'zligim, hayotim, borim.
Jahonga namoyon qudrat-u ko'rking,
Turkiy el so'zligim, ona diyorum,
Yerlari muqaddas O'zbekistonsan.



1. She'rdagi misralar oxirida takrorlanib kelayotgan so'zlarni belgilang.
2. Misralar oxiridagi ohangdosh so'zlarni toping.
3. She'nda qaysi tarixiy shaxslar ismlari keltirilgan?
4. "Jahonga namoyon qudrat-u ko'rking" satrida shoir aynan qaysi holatlarni nazarda tutgan, deb o'ylaysiz?
5. Mustaqil O'zbekistonni madh etuvchi qanday so'zlardan foydalanilgan?
6. She'rga mos kuy topishga harakat qiling.



munavvar – nurli, yorug'
muazzam azming – ulug' qaroring
madh – maqtov
istiqlol – mustaqillik, erk



Quyidagi rasmlardan she'rغا mos bo'lgan va mos bo'lmaganlarini ajrating.
Javobingizni izohlang.

1**2****3****4**

"Yurtim uchun yangi g'oya" mavzusida suhbat quring. Har bir guruh o'zining yangi g'oyasini ishlab chiqsin.



She'rni yod oling.

Zamira Ibrohimova

Zamira Ibrohimovaning qator hikoya va ertaklari gazeta va jurnallarda, “Chashma”, “Uyqu nega xafa bo‘ldi”, “Tish qurti haqida ertak” va “Gulbahorning do‘stlari” kabi asarlari kitob holida chop etilgan.

Uning “Kichkintoylarni Amir Temur hayoti va faoliyati bilan tanishtirish”, “Kichkintoy doston tinglamoqda...” kabi maqolalari jurnallarda e’lon qilingan.



Chustiy qalamiga mansub bo‘lgan quyidagi hikmatli so‘zni izohlang.

Mehr ko‘rsat, kiray desang dillarga,
Mehrsizlik o‘zingni ham qaqshatar.

